

SHODMONQUL SALOM SHE'RIYATIDA TARIXIY VA AN'ANAVIY LEKSIKA.

Hamdamova Fotima Raxmatilla qizi

Annotatsiya: maqolada Shodmonqul Salom she'riyati uchaydigan tarixiy so'zlar va arxaik so'zlarga to'xtalindi. Ularning ma'nolari ochib berildi. Tarixiy qo'shimchalar va so'zlar izohi keltirildi.

Tayanch so'z va iboralar: Eskirgan so'zlar, tarixiy so'zlar, arxaik so'zlar, arxaik leksika, tarixiy qo'shimchalar

Biz bilamizki, tilshunoslikda eskirgan so'zlar degan termin mavjud. Davrlar o'tishi bilan tilda ham ma'lum bir so'zlar o'z muddatini o'taydi yoki uning o'rnini boshqa bir so'z egallaydi. Til doim o'zini tozalab turadi va doimiy rivojlanishda bo'ladi. Zamonlar o'tar ekan, dunyo rivojlanishda ekan til ham bevosita rivojlanadi. “ Sotsiolizm tuzum ishlab chiqarishning rivojlanishi madaniyat, fan, texnika, va shu kabilarning taraqqiy etishi bilan yangi-yangi so'zlar vujudga keladi va tilning lug'at tarkibini to'ldiradi”¹ Eskirgan so'zlar vaqt o'tishi bilan kam ishlatiladi yoki umuman iste'moldan chiqib ketadi. Bu holatni professor L.A.Buloxov “Tilning o'lishi”, - deb ataydi². Bu holat bevosita sivilizatsiya bilan bog'liq. Eskirgan so'zlar ifodalaydigan so'zlar hozir ham mavjud faqat uning zamonaviy ko'rinishdagi shakli ishlatiladi. Masalan, ulus – xalq, firqa – partiya, lang – cho'loq, tilmoch – tarjimon, doruifunun – universitet, o'muz – ko'krak.

O'zbek she'riyatida jamiki shoirlarning ijodida eskirgan so'zlar bevosita ishtirok etadi. Bu esa o'sha she'rning ta'sirchanligini oshirishga katta xizmat qildi. Eskirgan so'zlar ikki xil bo'ladi. 1-tarixiy so'zlar bunda so'z ham uning ma'nosi ham eskiradi va xalq tilida

¹ Talkina Fedorik. E .M, Torshkov. K.B, Shanskiy.N.M, Sovremenniy ruskiy yazik. M, 1958, str 68-67

²Ш. Раҳматуллаев, Архаизм ва историзм, САГУ, науч. труды. вык. 211. Языкономия. Т., 1963 йил.

³⁷ Нибелунги-немис эпосининг bosh қаҳрамони.

² Захира-запас, жамғарма.

ishlatilmaydi. Bunday soʻzlarga shoh, xos hojib, valiy, zohid, qozi, amlok, ahamoniylar, cherik kabi. 2-arxaik soʻzlar bunday soʻzlar shakli oʻzgaradi lekin maʼnosi saqlanadi. Masalan, ulus-xalq, nohiya-tuman, jarida-jurnal, muhoraba-urush, dudoq-lab, sipehr-osmon, tilmocho-tarjimon, cherik-askar, ziroat-dehqonchilik, dorugʻa-shahar hokimi va boshqalar. Shodmonqul Salom sheʼriyatida ham eskirgan soʻzlar. Maʼlum vaqt oʻtishi bilan bunday soʻzlar oʻz oʻrnini boshqa bir soʻzga boʻshatib beradi.

Shoir eskirgan soʻzlarni arxiv emas, arsenaldir deydi. “badiiy adabiyotda arxaiklashgan leksikani qoʻllash, kitobxonga oʻtmish haqida toʻliq tushuncha hosil qilish uni real tushunish uchun koʻmaklashadi”³ “Davr koloritini yaratishda, personajlar tilini individuallashtirishda, tasvirlanayotgan voqealarni real va jonli boʻlishida stilistik rol oʻynaydi”⁴ “Eski soʻzlar arsenalini qayta koʻrib chiqish va soʻz ijod qilish shoirlarning jangovor vazifasidir”⁵ Shunday ekan, bu arsenalidan kerakli soʻzlarni topib oʻz oʻrnida ishlatish har bir shoirning muqaddas burchi va sharafligi vazifasi sanaladi.

Bu jihatdan Shodmonqul Salom boshqa shoirlar singari harakat qilmoqda. Ijodkor tomonidan ishlatilgan soʻzlar qadimiy boʻlishiga qaramasdan oʻz oʻrnida ishlatilgan, sheʼr mazmunini ochib berishga xizmat qilgan. Shodmonqul Salom sheʼrlarida eskirgan soʻzlarning har ikkisi uchraydi. Bu turdagi eskirgan soʻzlarni hamma sheʼrlarida uchratmasligimiz mumkin. Shodmonqul Salom sheʼriyatida qoʻllangan arxaizmlarni ikki turga ajratdik. Bular: 1. Leksik arxaizmlar 2. Grammatik arxaizmlar. Shoir sheʼrlarida ham shunday shakldagi soʻzlarni koʻrishimiz mumkin. Mana masalan, “Koʻkdan koʻringuvchi manzillarimiz” sheʼridan namuna

Yerni aziz qilgan aziz pirlarim,

Kuchini koʻrsatsin bul dam zoʻrlarim.

⁵ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun Oʻzbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 66 b

Bu she'rda qadimda mavjud ustozdan ham ulug'sanalgan pir so'zi keltirilgan. Bu so'z bugungi kunda ko'p ishlatilmaydi uning muqobil variant ham yo'q shu sabab bu so'zni tarixiy so'z desak bo'ladi.

Shafolat Termiziy xotirasiga bag'ishlangan she'r

Roviy demish, daryoni dard yuvar emish,

Dardni esa daryo kunlar quvar emish,

Bo'lgani shu barisi jo olam kengish

Qarang hatto kechalar bor kunduzlar bor.

She'rda roviy so'zi keltirilgan . Bu so'z arabcha jumla bo'lib, qadimda hadis aytuvchilarni roviylar deb atashgan. Ya'ni hikoya aytuvchi kishilardir.

Kechmish nadir, g'am-u quvonch taloshimi?, "Bilmayman" she'ri T.2022

Eski qo'rga yangi olov qalamishmi?

Shoir so'zi iztirobning adashimi?

Men bilmayman, nozimlar bor, voizlar bor.

Voiz so'zi arabcha bo'lib, vaz aytuvchi, nutq sozlovchi degan ma'noni anglatadi. Bu so'zning bugungi kundagi ko'rinishi notiq demakdir. Voiz varianti esa badiiy adabiyotda, badiiy uslubda qo'llaniladi va bu leksik arxaizm sanaladi.

Hey, qanoti kesilgan burgut,

Tumshug'ingda o'lyapti qurt

Yarmin bolang, yarmin o'zing yut,

Men shu qurt va senga o'xshayman.

She'rda grammatik arxaizmni ko'rishimiz mumkin. Yarmin so'zida im qo'shimchasi bu yerda tushum kelishigi vazifasini o'tamoqda. Bugungi kundagi varianti

esa ni tushum kelishigi shaklida ifodalanadi. Biz bu kabi arxaizmlarni barcha shoirlar ijodida uchratishimiz mumkin.

Turkona iztirob Shumer xatlari

“Vatan” sheri T. 2022 y 89 b

Mangu muhrlangan hayot shartlari

Kelib-ketaversin sharq-u g‘arblari

Mening to‘rt tomonim chorimsan Vatan,

Pirlar g‘oyib bo‘lgan g‘orimsan Vatan

Shoir Vatan she’rida tarixda mavjud bo‘lgan va bugungi kunda hech bir joyda ishlatilmaydigan joy nomlarini keltirib o‘tadi. Masalan, Shumer xatlari qadimda shunday nomli davlat bo‘lgan va ular o‘z yozuvlariga ega bo‘lishgan. Yna chorimsan degan so‘zni qo‘llaydi. Chorforschada to‘rt degan ma’noni anglatadi. Bu sherda to‘rt tarafim ham vatan deya ta’kidlaydi ijodkor.

Kim hamyonin titgan kimdur unutgan, “Yo‘q bu vaqt sirayam o‘tmoqchi emas”

Kim bodani, kimni boda yiqitgan.

She’rda hamyonin so‘zida “in” qo‘shimchasi tushum kelishigi shaklining tarixiy ko‘rinishi. Bundan tashqari boda so‘zi mast qiluvchi spirtli ichimlik o‘rnida qadimda ishlatilgan. Badiiy adabiyotda boda so‘zi ko‘p ishlatiladi va stilistik bo‘yoqdorlikni yuzaga chiqaradi. Bu kabi o‘rinlarni shoirning “Ildizlarim” manzuma she’ridan namunalar keltirishimiz mumkin

Alqissa, suhbatim avjiga keldi,

Ota-onamizdan so‘ylayin endi,

So‘yla qadimda ishlatilgan bugungi kunda gapir ma’nosida ishlatiladi. Shoir she’rning ta’sirchanligini oshirish uchun ham aynan shu so‘zdan foydalanadi.

Jumma hoji deydi birovlar alqab

Ka'baga bormagan, lek taqvo bor zab.

Yo'ldosh komandirning qizi bo'lganlar,

Sag'ir-u lek oycha nozi bo'lganlar

She'rda alqab so'zi faqat shevadagina ishlatiladi. Sag'ir so'zi arabcha bo'lib kichik degan ma'noni anglatadi. Bu so'z arxaik jumla bo'lib bugungi kundagi varianti yetim demakdir.

Qoyaga botirib alp panjasini “Bahmal archasiga “ she’ri Jahonda onalar 120
b

Bir tup archa yig'ar olti botmon suv

Jim turgan burgutday sokin, viqorli,

Bahmal tog'larida yam-yashil surur

Botmon qadimiy og'irlik o'lchov birligi. Bu so'z tarixiy leksikaga misol bo'ladi. Bugungi kunda og'irlik o'lchov birligi ishlatilmaydi.

Qissadan hissa shu, shoiri zamon,

Sen ham tarjimonsan yurak xalq podsho

Ikki shoh qahridan qolsangda omon,

Bir kun so'z gunohi beradi jazo.

Podsho so'zi tarixiy so'z sanaladi, uning dublikati ham mavjud bo'lib, podishoh ham deb ataladi. Podsho so'zi bugungi kundagi davlat rahbari yoki president kabi so'zlar bilan manodosh bo'lolmaydi. Chunki ular bajaradigan vazifa va imtiyozlari bugungi kun davlat rahbarinikiga to'g'ri kelmaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Talkina Fedorik. E .M, Torshkov. K.B, Shanskiy.N.M, Sovremenniy ruskiy yazik. M, 1958, str 68-67

2. Ш. Раҳматуллаев, Архаизм ва историзм, САГУ, науч. труды. вык. 211. Языкономия. Т., 1963 йил.
3. Нибелунги-немис эпосининг bosh қаҳрамони.
4. Захира-запас, жамғарма.
5. Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 66 b
6. Baroq hoji Choriyev Gafur G‘ulom poeziyasining leksik-semantik xususiyatlari T. 2007